

QUR'ONI KARIMDAGI MUQATTAOT HARFLAR***Abdurasul ABDULLAYEV,****Xalqaro islom akademiyasi "Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy o'r ganish YUNESKO" kafedrasi doktoranti*

Annotatsiya: mazkur maqolada Qur'on karimning ba'zi suralari "muqattaot" harflari bilan boshlanishi, bu so'zlarni alifbo harflarning nomi bilan aytilishi, mazkur harflarni "huruf al-favatih" (ochuvchi harflar), "ava'il as-suvar" (suraning boshlanishi) va "favatih as-suvar" (suralarning ochilishi) deb nomlanishi haqida so'z ketadi. Shuningdek, ushbu maqolada Sharq olimlarining bu harflar haqidagi fikrlari, G'arb sharqshunos olimlari muqattaot harflari ma'nolarini o'rganganligi, G'arb olimlari bu harflarni "sirli harflar" deb nomlashganligi bayon qilingan. Tafsir olimlari bu muborak harflar haqida turli fikrlar bildirishgani, ushbu harf birikmalarining 20 ga yaqin turli xil talqinlari borligi haqida ma'lumotlar berilgan.

MYSTERIOUS LETTERS IN THE QURAN

Annotation: in this article, some chapters of the Holy Qur'an begin with the letters "muqattaat", these words are pronounced with the names of the letters of the alphabet, these letters are called "huruf al-favatih" (opening letters), "awa'il as-suwar" (the beginning of the sura) and it is said to be called "fafatih al-suwar" (the opening of the suras). Also, this article describes the opinions of Eastern scholars about these letters, Western Orientalist scholars have studied the meanings of muqattaat letters, and Western scholars have named these letters "mysterious letters". Tafsir scholars have expressed different opinions about these blessed letters, and it is reported that there are about 20 different interpretations of these letter combinations.

Kalit so'zlar: Huruf al-muqattaot, huruf al-favatih (ochuvchi harflar), ava'il as-suvar (suraning boshlanishi), favatih as-suvar (suralarning ochilishi), Qur'on tarixi.

Key words: Huruf al-muqattaot, huruf al-favatih (opening letters), ava'il al-suwar (the beginning of the sura), favatih al-suwar (the opening of the suras), the history of the Qur'an.

Qadimda arablar o'z tillari bilan faxrlanishar, o'zlarini beqiyos so'z ustalari deb hisoblashgan. Chunki ularning ko'pchiligi zo'r shoir va qasidaxon bo'lgan. Shu sababli juda ko'p she'r va qasidalarni yoddan bilishar, o'rni kelganda ulardan mohirona foydalanishar edi.

Qur'oni karim nozil bo'lgan davrda, arablardagi so'z ustalari, shoir va qasidahonlar mo'tabar shaxs deb hisoblangan. Ular doimo sher'dan, vazxonlikdan

musobaqa o'tkazib turar edi. Hatto g'olib shoirlarning sher'lari Ka'ba devoriga osib qo'yildi. Alloh taolo payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam orqali yuborgan Qur'oni karimni arab tili og'zaki ijod durdonasi bo'lgan qasida va she'rlardan yuqori darajadagi balog'at va fasohat bilan nozil qildi. Shunga qaramay, ko'p arablar Qur'oni karimning ilohiy kalom ekanligiga shubha qilishgan. Alloh taolo ularga ushbu kalomga o'xshash biror sura yoki oyat keltirishni taklif qildi: "Agar rostgo'y bo'lsangiz, unga o'xshash bir sura keltiring va bu (ishga) Allohdan boshqa, kuchingiz yetganicha, kimni xohlasangiz, chaqiring" (Yunus surasi, 38-oyati) [9, 36-b]. Ma'lum bo'lishicha, bu taklif voqelikda sodir bo'lgan. Uni bajarishga urinib ko'rgan kofirlar hech narsani uddalay olmay ojiz qolganlar.

Makka mushriklari Muhammad alayhissalomga nozil bo'lgan ilohiy kitob Qur'onni odamlarga e'lon qilishiga to'sqinlik qilishdi. Bu haqida Qur'oni karimda: "Kufr keltirganlar: "Bu Qur'onga quloq solmanglar, unga xalaqit bering, shoyadki g'olib bo'lsangiz", dedilar" (Fussilot surasi, 26-oyat) [10, 304-b]. So'ngra Alloh taolo Payg'ambari Muhammad alayhissalomga "Huruf al-muqattaot"lar bilan boshlangan suralarni nozil qildi. Bu harflar va harf birikmalari mushriklarning e'tiborini tortdi va ular Qur'onni tinglashni boshladи.

Qur'on karimning 114 ta surasidan 29 surasi **كَهْيَعْصُ، الْمَصُ، حَمُ، صِ، الْمُ** kabi "Huruf al-muqattaot" harflari bilan boshlanadi. Bu so'zlarni alifbodagi harflarning nomi bilan aytildi. "Muqattaot" harflar – "uzilgan" harflar demakdir. Umumiyroq bayon qilinsa, ushbu harflar birikib, so'zga aylangan bo'lsa-da, insonlar so'zlashuvida ishlatadigan so'zlar kabi ma'nolarni ifoda qilmaydi. Bu harflarni "huruf al-favatih" (ochuvchi harflar), "ava'il as-suvar" (suraning boshlanishi) va "favatih as-suvar" (suralarning ochilishi) deb ham atashgan. G'arb olimlari bu harflarni "sirli harflar" deb nomlashgan. Iste'molda esa ko'proq "Favatih as-suvar" va "ava'il as-suvar" nomlari ko'proq ishlatiladi. Bu harflarga turli nom berilganidek, ba'zi suralarning ular ila boshlanishidan ko'zlangan murod haqida ham har-xil fikrlar aytilgan.

"Huruf al-muqattaot" alohida oyatlar bo'ladimi yoki yo'qmi, bu borada ikkita xil fikr bor. Kufa maktabining vakillari, ulardan ba'zilari alohida oyatlarni tashkil qiladi, desalar ba'zilari esa yo'q, unday emas deyidilar. Basra maktabining vakillari Huruf al-muqatta umuman alohida oyatlar bo'lishi mumkin emasligiga ishonishgan. Muhammad Payg'ambarning sahabalari va ularning izdoshlari (salaflar)dan kelib chiqqan an'anaga ko'ra, Huruf al-muqattaotning ma'nolari Allohg'a ma'lum va ularning xaqiqiy ma'nolarini tushunish mumkin emas. Ya'ni, bu harflar va harf birikmalarining ma'nolarini har qanday talqin qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Tafsir olimlari bu muborak harflar haqida turli fikrlar bildirishgan. Ulamolarning aksariyati bularga ma'no bermay, balki "Alloh taolo o'zi bilguvchiroqdir" deyish bilan kifoyalanadi. Bu harflarning ma'nosi borasida mufassir Ibn Kasir rahimahulloh quyidagicha bayon qiladi: "Mufassirlar suralarning avvalidagi

“muqattaot” harflarning tafsirida ixtilof qilishdi. Ixtilofning asosiy sababi, ular haqida na payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning o‘zлari, va na sahobalardan birorta ham rivoyat yo‘q. Bir guruh mufassirlar: “Bu harflarning ma’nosi Allohning ilmiga ayondir” [3, 25-b.], deb tafsir qilishmagan. Ya’ni, ta’vilini faqatgina Alloh biladigan mutashobih oyatlardandir, deyishgan. Aynan shu fikrni aksar ulamolar qo‘llagan. “Muqattaot” harflari bilan boshlangan barcha suralar Makkada nozil qilingan, faqat “Baqara” va “Oli Imron” suralari bundan mustasno.

Abul Barakot Nasafiy rahimahulloh shunday deydi: “Bu harflar mo‘rob (ya’ni, turlanish yoki tuslanishida tugallanmasi o‘zgaradigan so‘z)dir. Sukun qilib o‘qilishiga sabab esa, ularga e’rob beradigan omilni yo‘qligidir. Masalan, ﴿بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ﴾ deganimizda, uning omili yo‘qligi sababli sukunli bo‘lgani kabi. Ba’zilar bu harflarni “asmoul asvot” kabi mabniyidir”, deydilar [2, 35-b].

Bir qator mufassirlar esa tafsir qilishgan va ularning tafsirlari turlicha bo‘lgan. Ba’zilar: “Bu suralarning ismlaridir” deyishgan. Zamaxshariy bu fikrga ko‘pchilik qo‘shilishini aytadi. Boshqa ba’zi mufassirlar esa: “Muqattaot” harflarning har biri Allohning ismlari va sifatlaridan biriga dalolat qiladi. Masalan: “Baqara” surasi avvalida kelgan ﴿الْمُ﴾ kalimasidagi “alif” Alloh taolonning ismi bo‘lmish “Alloh”ga, “lam” esa “Latif”, “mim” esa “Majid” ismlariga dalolat qiladi”, deydilar [4, 21-b], ba’zilar esa ﴿الْمُ﴾ kalimasidagi “alif”dan murod “Alloh”, “lam”dan murod “Jabroil”, “mim”dan esa “Muhammad” alayhissalom iroda qilingan” [1, 25-b], deydilar, chunki oyatning davomida “bu shunday kitobki, unda shak-shubha yo‘q” [5, 24-b], deb bayon qilinmoqda. Abdulloh ibn Mas’ud roziyallohu anhu: “Bu Allohning ismi a’zamidir”, degan [8, 36-b].

Ba’zi mufassir ulamolar quyidagicha tafsir qilishadi: “Suralarning boshidagi bu harflar basharni ojiz qoldirish maqsadida keltirilgan. Ushbu “muqattaot” harflar insonlar so‘zlashadigan harflardan tashkil topgan bo‘lsa-da, bashariyat uning ziddiga unga o‘xhash biror-bir narsa keltirishga ojizdir”. Bu fikrni Imom Roziy bir qancha muhaqqiq ulamolardan keltiradi.

Zamaxshariy rahimahulloh aytadi: “Ushbu “muqattaot” harflarining barchasi Qur’onda bir joyda jamlab keltirilmagan. Balki boshqalarni unga o‘xhashini keltirishda bahsga chaqirib, bir qancha suralarda takror va takror keltirilgan. Ushbu muqattaot harflar suralarning avvalida kelgan, ba’zi suralarda bitta harf (ص), (ق), (ن), yana boshqa suralarda ikkita harf (ح), (س), (ط), (ي), (ل), ba’zi suralarda uchta harf (الْمُ), (الْرُّ), (الْلُّ), yana ba’zi suralarda to‘rtta harf (الْمُصْ), (الْعُسْقُ), (كَهْيَعْصُ), (طَسْمُ), (الْمَرُّ), hamda ba’zi suralarda esa beshta harf (حَمَدَ), (عَسَقَ), (كَهْيَعَصَ), (طَسَمَ), (الْمَرَّ), qilib keltirilgan. “Muqattaot” harflardan tashkil topgan so‘zlarning barchasi alohida oyat emas. Balki ba’zilari alohida oyat, ba’zilari esa birinchi oyatning boshidagi so‘z sifatida kelgan.

Imom Zamaxshariy rahimahulloh aytadi: “Muqattaot” harflari Qur’oni karimda 29 ta harfdan iborat arab alifbosining adadicha 29 ta surada kelgan. Bundan tashqari,

tadqiqotlardan ma'lum bo'ldiki, suraning aynan qaysi "muqattaot" harflari bilan boshlangan bo'lsa, shu suraning ichida o'sha harflar boshqa harflarga nisbatan ko'proq bo'ladi. Misol uchun, (ڽ) "nun" surasining ichida nun harfi, (ڧ) "Qof" surasining ichida qof harfi boshqa harflardan ko'ra ko'proqdir. Imom Zarkashiy rahimahulloh aytadi: "Qof" surasi qof harfining sifatlari bo'lmish "qattiq" (shadida), "jarangli" (majhura), "ochiq" (munfatiha), "tebranuvchi" (qalqala) ma'nolarini ham ifoda qilgan" [6, 258-b]. Bu harflar grammatik jihatidan bayon qilingan.

"Huruf al-muqaatoat" o'quvchining alohida e'tiborini tortadi. Chunki, ushbu suralar boshqa suralardan arab alifbosidagi bir yoki bir nechta harflardan boshlanishi bilan farq qiladi. Qur'on karimni oyatlarida ham, ishonchli hadislarda ham bu harflarning ma'nosi haqida hech qanday ma'lumot yo'q. Ammo, Qur'oni karim suralari va oyatlaridagi xar bir harfni o'qishda o'zgacha savob borligi uqtiriladi. Imom Tirmizi o'zining "Sunan" asarida Abdulloh ibn Mas'uddan rivoyat qiladi Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam: "Kim Allohnning kitobidan bir harf o'qisa, unga bitta yaxshilik yozilib, u o'n barobariga ko'paytiriladi. Men "alif, lom, mim"ni bitta harf demayman. Balki, "alif" bir xarf, "lom" bir xarf va "mim" bir xarfdir", - dedilar. Ba'zilar esa, har bir o'qilgan so'z uchun mukofot o'n baravar yozilgan deb ta'vil qilgan, ammo shu mazmunda kelgan boshqa hadislarda Qur'ondag'i har bir harf bu yerda nazarda tutilganligi aniq.

Aksariyat musulmonlarning fikriga ko'ra, muqattaot harflarda ilohiy sir bor. Bu harflarning ma'nosini har qanday talqin qilish, shunchaki taxmin qilish mumkin emas. Buni Xalifa Abu Bakrning so'zлari tasdiqlaydi: "Har bir ilohiy oyatda o'ziga hos sir bor va Qur'oni karimning siri ba'zi suralarning boshida harflarda" Ba'zi Islom olimlari ba'zi maxfiy xabarlar 19 raqamiga asoslangan harflarda shifrlangan deb hisoblashadi (19-oyat harflar bilan bog'liq deb ishoniladi), boshqalari bu harflar Qur'onga xos sirlar haqida gapiradi va faqat Alloh tomonidan tushuniladi. Boshqalar, payg'ambar shu tariqa ilohiy haqiqat nomukammal inson tilining zarralaridan qanday paydo bo'lishini ko'rsatmoqchi bo'lgan deb hisoblashadi. Albatta, bu Allohnning irodasi bo'lmasa, biz hech qachon aniq bilib olishimiz dargumon.

Imom Zamaxshariy shunday deydi: "Muqattaot" harflari Qur'oni karimda 29 ta harfdan iborat arab alifbosining adadicha 29 ta surada kelgan. Agar takrorlanganlarini chiqarib yuborsak, 14 ta surada kelishi ma'lum bo'ladi. Bu esa arab alifbosidagi hamza va alifni bitta harf deb oladigan bo'lsak. Shunda takrorlanmagan "muqattaot" harflar alifboning yarmini adadiga teng bo'ladi. "Agar ushbu 14 ta "muqattaot" harflariga nazar solsak, arab alifbosidagi harflarning sifati jihatidan teng yarmisi shu harflarda jamlangan. "Alovida o'qiladigan" harflarning har biri arab alifbosida aytilganidek talaffuz qilinadi, ammo Qur'on matnida bu harflar birgalikda yozilgan. Bu esa, o'z-o'zidan arab yozuvi uchun g'ayrioddiy holat. Zamaxshariy o'z tafsirida harflarning bosh harflarini yozish va o'qish usuli musulmonlar uchun tushunarli ekanligini va ular

uchun hech qanday qiyinchilik tug‘dirmasligini ta’kidlaydi. Xattotlar muqaddas matnlarni yozishning maxsus tamoyillarini ishlab chiqdilar. Ular arab yozuvining an’anaviy namunalaridan biroz farq qiladi. Qur’on karim matnini yozish an’anasi juda uzoq vaqt davomida o‘rnatilgan va mustahkamlanganligi sababli, bu xususiyatlar Qur’oni karimni o‘qishni qiyinlashtirmaydi va uning o‘zgarishsiz saqlanishiga to‘sinqlik qilmaydi.

Harflar boshida arab alifbosining 14 harflaridan foydalanilgan. Masalan: 10 ta jarangsiz (mahmusa) harflardan 5 tasi “muqattaot” harflaridan iborat. Ular: الصاد (الكاف، واللام،) 18 ta jarangli (majhura) harflarning yarmisi (والباء، والسين، والحاء واللام، والميم، والراء، والعين، والطاء، والقاف، والياء، والنون) 8 ta qattiq (shadida) harflarning yarmisi (الألف، والكاف، والطاء، والقاف) 15 ta sirg‘aluvchi (roxova) harflarning yarmisi (اللام، والميم، والراء، والصاد، والهاء، والعين، والسين، والباء، والنون) 4 ta yo‘g‘on-yopiq (mutbaqo) harflarning yarmisi 24 ta ochiq (munfatiha) harflarning yarmisi (اللأم، واللام، والميم، والراء، والهاء، والعين، والسين، والباء، والنون) 22 ta ingichka (munxafiza-istefola) harflarning yarmisi (القاف، والصاد، والطاء) 7 ta yo‘g‘on (iste’lo) harflarning yarmisi (والباء، والنون) 5 ta tebranuvchi (qalqala) harflarning yarmisida (القاف، والطاء) “muqattaot” harflaridan iborat [7, 139-b].

Ba’zi mufassirlar huruf muqattaotning ma’nolari faqat Muhammad payg‘ambarga nozil qilingan va ularni boshqa hech kim bila olmaydi, deb ishongan. Biroq, ba’zi musulmon ulamolar bunga rozi bo‘lmadi va Huruf muqattaotning ma’nolarini tushuntirishga urinish mumkin deb hisobladi. Ularning fikriga ko‘ra, agar bu harf birikmalari aniq ma’noga ega bo‘lmaganida, ular kerak bo‘lmas edi va ular Alloh tomonidan nozil qilinmagan bo‘lar edi. Shu sabablarga ko‘ra, ulardan ba’zilari allegoriya (yun. allegoria — (o‘zgacha ifodalash, kinoya, qochirim) — badiiy tasvir, obrazlilik turi; mavhum tushuncha yoki g‘oyalarni muayyan narsa, voqeа va hodisa orqali ifodalash.) usullaridan foydalangan holda Huruf muqattaot ma’nolarini tushuntirishga harakat qilishdi. Ammo ular bir fikrga kelmadilar. Shuning uchun ushbu harf birikmalarining 20 ga yaqin turli xil talqinlari ma’lum. Shunday qilib, ba’zi olimlar Huruf muqattaot Allohning ba’zi muhim va atributi va fazilatlarini ifoda yetgan deb ishonishgan. Masalan, ularning fikriga ko‘ra, Alif lam mim harflarining kombinatsiyasi Alloh latif majidning ilohiy ismlarini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ular Ibn Abbosning rivoyatiga murojaat qilishdi. Boshqa olimlar bu harflar Allohning bir nechta atribut ismlarini ifodalagan deb ishonishgan. Misol uchun, alif lam mim harflarining bir xil birikmasida “alif” harfi Ahad, Avval, Ahir, Azal va Abad kabi ilohiy ismlarini bildisa, “lom” – Latif va “mim” – Malik, Majid, Mannan kabi ismi sifatlariga dalolat qiladi, dedilar.

Ba’zi mufassir olimlar “Fatxu al-Bayon lil-qanujiy” tafsir kitobida bu harflarga abjad (Abjad hisobi — arab alifbosidagi xarflar vositasi bilan ifodalangan sonlar

asosidagi xisob. Arab yozuvida mavjud bo‘lgan xar bir xarf raqam singari son ma’nosini xam ifodalaydi. Bu o‘rinda arab grafikasidagi xarflar zamirida muayyanlashgan raqamlarni esda tutish zarurki, bular abjad xisobi bo‘yicha, ta’rix she’riy san’atida, binolardagi naqshinkor yozuvlar tarkibida muayyan sanalarni so‘z yoki so‘z birikmasi tarkibida yashirib ifodalashda ishlatiladi) xisobi bo‘yicha ma’no bergen. Masalan: “Alif”dan 1-ni, “Lom”dan 30-ni, “Mim”dan 40-raqamini iroda qilinadi, shunda buning ma’nosi yagona bo‘lmish Olloh taolo 30 pora Qur’oni karimni payg‘ambari Muhammad alayhissalom 40 yoshga yetkanida nozil qildi, deb ta’vil qilganlar. Zayd ibn Aslam bu xarflar Suralarni ismi desa, Kalbiy bu qasam harflari Allah taolo bu harfnинг fazli va sharafi bilan qasam ichadi, dedi.

Mashhur nemis sharqshunos olim Teodor Nyol’deke (1836-1930y.) 1860 yilda “Qur’on tarixi” (*Geschichte des Qorans*) kitobini nashr etganidan keyin G‘arb sharqshunoslari muqattaot harflari ma’nolarini o‘rganishni boshladilar. Ushbu kitobda muallif bu harflarni Qur’onning bir qismi deb hisoblash mumkin emasligini yozadi. Uning fikricha, muqattaot – bu Payg‘ambar hayoti davomida yuborilgan oyatlarni yozgan sahobalarning ismlarining bosh harflari yoki qisqartmalari. Ushbu harflar Zayd ibn Sobit tomonidan Qur’onning barcha oyatlarining bitta to‘plamini tuzganida yozilgan. Masalan, o‘sha paytda arab yozuvida nuqta yo‘qligi sababli “Alif-lam-mim” kabi o‘qilishi mumkin bo‘lgan. “alif-lam-ra” az-Zubayrga, “Alif-lam-mim-ra” al-Mug‘iyraga, “ha-mim” Abd Ar-Rahmonga ishora qiladi. Uning nuqtai nazaricha, bu harflar yozilgan, ammo musulmonlarning keyingi avlodи ularning ma’nosini bilmay, e’tiborsizlik ko‘rsatgan [11]. Ushbu nazariya Yevropada uzoq vaqt davomida muvaffaqiyatga erishdi, ammo Teodor Nyol’dekening o‘zi bu qarashidan keyinchalik voz kechdi, shuning uchun asarining keyingi nashrlariga bu fikrni kiritmadı.

Jeyms Bellami 1973 yilda “Qur’onning sirli harflari: Basmala (Basmala - Bismillahir rahmonir rahim kalimasining qisqartirilgan shakli)ning qadimiy va qisqa shakli” (Тайнственные буквы Корана: древнегреческая и краткая форма басмалы) maqolasini yozdi. Ushbu maqolada “Huruf muqattaot”lar haqida yangi fikr bildirdi. Qur’onni klassik tarjimonlarining fikriga asoslanib, “alif-lam-ra”, “alif-lam-mim-ra”, “ha-mim” va “nun” ar-Rahmon yoki ar-Rahim yoki ikkalasining shakli, u ushbu harflar orqali basmalani tashkil etishini aytdi. Shuningdek, u barcha alohida yozilgan harflar basmalaning siqilgan shakli ekanligini bildiradi, deydi. Bellamining so‘zlariga ko‘ra, basmala formulasi birinchi marta o‘rtaligida Makka suralarida nozil qilinganida, vahiy kotiblari uni turli qisqartirilgan shakllarda yozib, shu yigirma to‘qqiz suranining boshida kiritishgan. Keyin ular Qur’onning bitta kodini tuzdilar, bu harflarning ma’nosini aniqlamasdan ularni basmala formulasidan keyin kirtdilar degan g‘oyani ilgari surdi. Ammo Bellamining nazariyasi, xususan, u taklif qilgan o‘zgarishlar, avvalgilarining nazariyalariga qaraganda ancha zaif va asossizdir.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda Qur’oni karimni ilmiy jihatidan o‘rganishga keng yo‘l ochildi. Mufassirlar yozib qoldirgan asarlar ma’naviy-ma’rifiy hayotimizda o‘ziga xos o‘ringa egaligi munosib darajada qayd etilmoqda. Bunday sharoitda muqaddas Qur’oni karimni to‘g‘ri tushunish hamda tafsir etishga oid asarlarni izchil tadqiq etish, ilmiy istifodaga kiritish muhim vazifalardan biridir.

Foydalanimanligi adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abu Lays Samarqandiy “Baxrul ulum” 1-juz’. – Bayrut: Dor al-kutub ilmiya, 1993. –653 b.
2. Abul Barakot Nasafiy. “Madorikut tanzil va haqoiqu ta’vil”. 1-juz’. – Bayrut: Daru Ibn Kasir, 2018. – 458 b.
3. Abul Fido ibn Kasir. “Fazoilul-Qur’on”. – Bayrut: Dorul-Andalus, 1998. –251 b.
4. Abul Fido Ismoil ibn Kasir Dimashqiy. “Muxtasoru tafsiri Ibn Kasir”. 1-juz’. – Bayrut: Maktabatul asriya, 2017. – 357 b.
5. Alimov U. Tafsiri irfon. 1-3 juzlar – Toshkent: Sharq, 2012. – 336 b.
6. Badriddin Muhammad ibn Abdulloh Zarkashiy. “Al burhon fiy ulumil Qur’on”. 1-juz’. – Qohira: Dorut tuvos, 2009. – 258 b.
7. Jorulloh Abul Qosim Mahmud ibn Umar Zamaxshariy. “Tafsirul kashshof an haqoiqu tanzil va uyunil aqovil fiy vujuhit ta’vil”. – Bayrut: Dorul ma’rifa, 1-juz’. 2013. –451 b.
8. Nasafiy Abul Barokot. “Madorikut tanzil va haqoiqu ta’vil”. 1-juz’. – Bayrut: Daru ibn Kasir, 2018. – 664 b.
9. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 3-juz’. – Toshkent: Sharq, 2012. – 656 b.
10. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 5-juz’. – Toshkent: HIOL-NFSHR, 2017. – 672 b.
11. <https://archive.org/details/geschichtedesqor00nluoft/page/4/mode/2up>